




# **“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy  
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining  
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



**“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari  
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026.   bet.

**Mas’ul muharrir:**  
**Shuhrat Sirojiddinov**  
filologiya fanlari doktori, akademik

**Tahrir hay’ati:**

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;  
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;  
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;  
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;  
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;  
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

|    |                                                                                                                   |     |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 7  | <b>Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA,</b><br>“Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili       | 400 |
| 8  | <b>Nargiza UMURZAQOVA,</b><br>Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni       | 405 |
| 9  | <b>Nurjahon RAHMONBERDIYEVA,</b><br>Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati | 408 |
| 10 | <b>Mohinabonu RAHMATOVA,</b><br>Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi                      | 412 |
| 11 | <b>Sanobar TURSUNOVA,</b><br>Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar                            | 414 |
| 12 | <b>Lobar AVAZOVA,</b><br>Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi                                     | 417 |
| 13 | <b>Ozoda RAJABBOYEVA,</b><br>“Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi              | 421 |

### 5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

|     |                                                                                                                                               |     |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1.  | <b>Matluba JABBOROVA,</b><br>O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi                                     | 425 |
| 2.  | <b>G‘ayratbek XOLBUTAYEV,</b><br>Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya                                  | 428 |
| 3.  | <b>Abdukamol ABDUJALILOV,</b><br>Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati                                                                  | 433 |
| 4.  | <b>Ma‘mura RAMATOVA,</b><br>Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish                                             | 437 |
| 5.  | <b>Gulruh RAVSHANOVA,</b><br>Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm                                                    | 441 |
| 6.  | <b>Feruza TURDIMOVA,</b><br>Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi                                       | 445 |
| 7.  | <b>Saodat JO‘RAYEVA,</b><br>Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari                                                  | 448 |
| 8.  | <b>Aziza SAYDULLAYEVA,</b><br>O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini                                          | 451 |
| 9.  | <b>Huriniso XAYRULLAYEVA,</b><br>“Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi               | 454 |
| 10. | <b>Sadoqat KAMOLOVA,</b><br>“Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida) | 456 |
| 11. | <b>Shohzoda TURSUNBOYEVA,</b><br>Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi                                | 459 |
| 12. | <b>Dilafruz MAHKAMOVA,</b><br>“Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri                                              | 463 |
| 13. | <b>Nilufar DEHQONOVA,</b><br>“Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi                            | 468 |

## “DEVONU LUG‘OTIT-TURK”DAGI MIFOLOGIK OBRAZLAR VA ULARNING FOLKLORIY TRANSFORMATSIYASI

### MYTHOLOGICAL IMAGES IN “DEVONU LUG‘OTIT-TURK” AND THEIR FOLKLORE TRANSFORMATION

Nilufar DEHQONOVA,

TOSHDO‘TAU tayanch doktoranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IHQE1555

**Annotation.** *This article analyzes the mythological images reflected in “Devonu lug‘otit-turk” and their transformation in folklore. The study identifies cosmogenic, cultic, and demonological types of images and examines their lexical-semantic features. It also highlights the close connection of these images with oral creative traditions and explores how they have been preserved in later periods. The analysis reveals that some mythological images have undergone semantic changes, while others have remained relatively stable and have been preserved in folklore.*

**Key words:** *Devonu lug‘otit-turk, mythological images, Yil Bo‘ka, otherworld, folklore, Koktubulgon, Umay Mother, cosmogony, ritual folklore, transformation, demonology.*

“Devonu lug‘otit-turk” asari eski turkiy tilning, turkiy lug‘atchilikning nodir yodgorligidir. Ushbu asari bilan olim turkiy leksikografiya ilmining tamal toshini qo‘yish bilan birga, bu sohani yuqori bosqichga olib chiqdi [DLT. 2017]. Qadimgi xalq maqollari, xalq dostonlari va qo‘shiqlaridan olingan parchalar, iboralar, ko‘plab misollar, shuningdek, sheva materaillari asar uchun manba bo‘lib xizmat qilgan. Asarda so‘z ma‘nosini aniqlashtirish maqsadida tarixiy va etnografik ma‘lumotlar, so‘z bilan bog‘liq rivoytalar ham keltiriladi. Keltirilgan misollar nihoyatda boy va turli-tuman bo‘lib, ular xalq ijodidan saralab olingan. “Devon”da islomgacha bo‘lgan turkiy e‘tiqod, shomonlik unsurlari va mifologik tasavvur izlari saqlanib qolgan. Mazkur qadimiy obrazlarni o‘rganish, turkiy xalqlarning tafakkur evolyutsiyasini tahlil qilish folklorshunoslik, xususan, mifologiya uchun muhim hisoblanadi. Asarda etnografik va folkloristik materiallar ham berilgan. Olimning o‘zi bu haqida shunday deydi: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq-yaylovlarni ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Bo‘lmasa, men bu tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar va qirg‘iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim” [DLT. 1963; 44]. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarining topilganiga qariyb yuz yil bo‘ldi. Shu davr mobaynida asarning matni, turli tillarga qilingan tarjimalari bir necha marta chop etildi. “Devon” xususiyatlarini, Mahmud Koshg‘ariy hayotini o‘rganishga bag‘ishlangan yuzlab tadqiqotlar maydonga keldi, dissertatsiyalar himoya qilindi, ilmiy to‘plamlar, monografiyalar nashr etildi, xalqaro miqyosdagi anjumanlar o‘tkazildi. Asar bugungi kunda ham ko‘plab folklorshunos olimlar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida yangi ilmiy

izlanishlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu asar bo'yicha yuzlab ilmiy ishlar, ko'plab maqolalar e'lon qilingan bo'lsa-da, hali asar to'liq, har tomonlama o'rganib bo'lingan deb aytib bo'lmaydi. Asarning bizga beradigan ilmiy yangiliklari hali ham talaygina va albatta yana ko'pgina tadqiqotlar uchun mavzu bo'ladi.

Folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarini o'rganishda e'tiborga molik jihatlarini to'rtga bo'ladi [Эшонқулов 2018; 71]. Bular:

1) Maqollar tarixini o'rganishda "Devonu lug'otit turk"ning o'ri va ahamiyati.

Olim "...maqollar xalq jonli tilida muhim o'rin tutishini ta'kidlab, ularning tarixini o'rganishda "Devonu lug'otit turk" muhim ahamiyat kasb etadi" – deydi. Mahmud Koshg'ariy "Devon"da 300ga yaqin maqollarni keltirib, ularga izoh bergani va ular bugungi kunga kelib asl holda yoki qisman o'zgargan holatda uchrashini aytib, bunga quyidagi maqollarni misol qilib keltiradi:

"Devonu lug'otit turk"da:

Ağilda uğlaq tuğsa,

Ariqda öti unar.

Bugungi kunda ishlatilishi:

Og'ilda buzoq tug'lsa,

Ariqda o'ti unar.

"Devonu lug'otit turk"da:

Anuq ötru tutsa yuqqa sanmas.

Bugungi kunda ishlatilishi:

Mezbon borini qo'ysa,

Mehmon yo'qqa sanamas.

Maqollarda xalqning tafakkuri, tajribasi aks etadi. Unda uch zamon birlashib ketadi. Ana shuning uchun ham maqollardagi o'zgarishlar deyarli sezilmaydi, bizningcha.

2) Xalq qo'shiqlari, ayniqsa, jumladan, qo'shiqlarning tarixiy asoslarini o'rganishda Mahmud Koshg'ariy merosining o'ri va ahamiyati.

Ma'lumki, so'z san'atining ildizlari xalqlarning mifologik tafakkuri bilan chambarchas bog'liq. O'z navbatida ana shu tasavvurlarning poetik idrok qilishga o'tishining samarasi bo'lgan bugungi ma'nodagi folklor merosining ayrim namunalarida ibtidoiy jamoa tuzumi va undan keying ilk madaniy bosqichlaridan tortib, zamonaviy maishiy turmush va qarashlarning qayta-qayta poetik mushohada qilingan badiiy ifodalarini uchratishimiz mumkin.

Bundan tashqari, Alp Er To'nga vafoti bilan bog'liq marsiya, motam marosimi qo'shiqlari bilan bir qatorda mavsumiy marosim bilan bog'liq qo'shiqlardan ham namunalar keltirilgan. Xususan, "Devon"da qish(kuz) va bahor(yoz)ning kurashi, bahs-munozarasi tarzida keltirilgan. O'zaro bahs-munozarada qaysi biri g'olib bo'lsa, ana shu fasl tabiatda hukmronlik qiladi deb tasavvur qilishgan. Ajdodlarimiz bu fasllarni yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat bilan bog'liq holda antropomorfik qiyofada tasavvur qilishgan. "Devon"da keltirilgan to'rtliklarda qish va yoz munozarasi berilarkan, unda qish har qancha g'oliblikka intilmasin, so'ngida baribir yozga mag'lub bo'lganini guvohi bo'lamiz. Folklorshunos olim Jabbor Eshonqul to'g'ri ta'kidlaganidek, marosim shaklida zamonlardan o'tib kelayotgan an'analar, davrlar o'tishi bilan marosimdan uzilib, san'at ko'rinishini olishi mumkin. Bu kabi qo'shiq namunalari o'z navbatida qo'shiq janri tarixini, badiiyatini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.



3) Folklorshunoslik atamalarining shakllanish tarixida “Devonu lug‘otit turk”da kelgan atamalar va ularga berilgan izohlarning o‘rni va ahamiyati.

“Devonu lug‘otit turk”da ko‘plab sohalar qatori xalq og‘zaki ijodiga oid atamalar ham o‘rin olgan. Ushbu atamalar bugungi kun folklorshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, “Caw” so‘zi bir qancha ma’noda keladi. Caw – maqol; caw – qissa; caw – hikoya; caw – risola; Cawladi – Otalar so‘zini so‘zladi, hikmatli gap aytdi. Qoshug‘ – qo‘shiq, qasida; Alp – botir, qahramon; Er, eran – erkak, botir; atich – bolalar yong‘oq o‘ynaydigan chuqur joy; kabi so‘zlar folklorshunoslik atamalarining tarixiy ildizlari deyish mumkin [Эшонкулов 2018; 75].

“Devon”da shuningdek, ko‘plab mifologik obrazlar ham uchraydi. Baroq – it-qush, Umay ona, Yil Bo‘ka, jel (yovuz ruh, jin), Ko‘ktubulg‘on kabi yana bir qancha mifologik obrazlar turkiy xalqlar dunyoqarashining bir necha yuzyilliklar avvalgi aks etishidir. **Baraq** (baraq) – baroq, serjun it. Turkiy xalqlar e‘tiqodiga ko‘ra, burgut qariganda ikkita tuxum qo‘yib, ularni bosar emish. Tuxumlarning biridan o‘sha **baraq** otli kuchuk paydo bo‘lar emish. Itlarning eng tez yuguradigani ham, ovni qattiq qo‘riqlaydigan ham ana shu itdir. Ikkinchi tuxumidan jo‘jasi chiqar emish. Bu uning jo‘jalarining oxirgisi bo‘lar emish. (“D.l.t.” 152-bet, 2017-y)

It-qush haqidagi afsona syujeti turkiy xalqlardan ko‘pchiligiga, jumladan, qirg‘iz, boshqird va o‘yrotlarga ham yaxshigina ma‘lum bo‘lgan ekan. Boshqirdlar afsonasiga ko‘ra, quzg‘un o‘z uyasida ikki dona tuxum qo‘yar. Tuxumlarning biridan Tuyg‘un degan serjun it, ikkinchisidan esa Shunqor deb ataluvchi ov qushi chiqarmish. Bizga ma‘lumki, Tuyg‘un ham qushga beriladigan sifatlardan biri. Tilshunos X.Doniyorovning ma‘lumotlariga qaraganda, qipchoq shevalarida bo‘rini “iyt-qush”, ya‘ni “itqush” deyisharkan [Doniyorov 1979; 119]. Xorazmliklar orasida esa qush misol uchadigan it haqidagi afsonalar saqlanib qolgan. Xususan, afsonalardan birida aytilishicha, xorazmlik shayx Najmiddin Kubroning iti bamisoli qushdek parvoz qila olar ekan. G.P.Snesarev Najmiddin Kubroning iti haqidagi bu afsonani tahlil qilar ekan, avliyoning uchar itini qadimgi mifologiyadagi Semurg‘ obraziga qiyoslagan edi [Jo‘rayev 1980]. Darhaqiqat, Senmurv yoki o‘zbek xalq ertaklaridagi Semurg‘ obrazi o‘rta Osiyoda yashagan qadimgi ajdodlarimiz mifologiyasining mahsulidir. K.V.Treverning ta‘kidlashicha, bu xayoliy qush nomi dastlab Saena-merug‘a shaklida bo‘lib, “it-qush” degan ma‘noni anglatgan ekan. Bizningcha, Semurg‘ qadimgi afsonalarda it boshli, qush siyratli asotiriy jonzot sifatida tasvirlangan bo‘lishi kerak [Чечаров 1969; 322]. Keyinchalik bu mifologik tasavvurlar unutilib ketib, u ertak va dostonlarimizning an‘anaviy obrazlaridan biriga aylanib qolgan. Semurg‘ haqidagi mifologik tasavvurlar qush tuxumidan chiqqan it qushdek ucha oladigan qanotli it haqidagi afsonalar bilan genetik jihatdan aloqadordir.

Mahmud Koshg‘ariy yana bir qush – “Ko‘ktubulg‘on”ga izoh berarkan, shunday deydi: “Ko‘ktubulg‘on – bir qushning nomi. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanotida po‘lat bo‘ladi va qanoti bilan toqqa urib, bir tomondan boshqa tomonga o‘tadi. Bu so‘zni menga o‘zim foydalanib yurgan bir kishi aytdi” (“Devon” 1-jild, 474-bet).

Ko‘rinadiki, bu mifologik afsonada qadimgi turkiylar folklorida mavjud bo‘lgan xayoliy qush to‘g‘risidagi xalq qarashlari o‘z ifodasini topgan. O‘zbek tilida qattiq patlari o‘sib chiqqan qush poloponini “temirqanot bo‘libdi” deb ta‘riflashda ham shu tasavvurlarning izi saqlanib qolgan deyish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarning barchasini it-qushning qanotlari po‘latdan bo‘lishi elementi birlashtirib turadi. Va ana shu jihati bugungi kungacha xalq og‘zaki ijodida, xususan

ertaklarda turli evrilishlar bilan saqlanib qolgan. Bu ham qadimgi mifologik tasavvurlarning bugungi xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liqligining isbotidir.

“Devon”da ajdodlarimizning osmon yoritqichlari va yulduzlar bilan bog'liq asotiriy tasvurlar va inonch-e'tiqodlarini aks ettiruvchi “Erän tyž” (Mezon yulduzi), “Baqir soqum” (Mirrix sayyorasi), “Temur qazyñuq” (Qutb yulduzi), “Ulkar” (Hulkar yulduzi), “Qaraqush” (Mushtariy sayyorasi), “Jetikan” (Yetti qaroqchi) kabi astronomik atamalar keltirilgan [DLT. 2017; 145].

“Devonu lug'otit - turk”ning muallifi Mahmud Koshg'ariy “qaz” so'ziga izoh berayotib, quyidagi ma'lumotni beradi: “Ba'zilar butun Movarounnahrni turkiylar o'lkalaridan deb hisoblaganlar. U Yankanddan boshlanadi. Uning bir oti Dizruiyindir. U sariqligiga ko'ra, “mis shahri” demakdir. Bu Buxoroga yaqindir. Bu yerda Afrosiyobning qizi Qazvinning eri Siyovush o'ldirilgandir. Ma'jusiyy-otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, Siyovush o'lgan joy atrofida yig'laydilar. Mollar so'yib, qurbonlik qiladilar. So'yilgan mol qonini uning mozori tepasiga to'kadilar. Ularning odatlari shunday” [DLT. 2017; 374]. Bu o'rinda ham Siyovush bilan aloqadorligining boisi shundaki, qadimgi ajdodlarimiz mifologiyasida Siyovush dafn etilgani to'g'risida so'z bormoqda. Bizningcha, Mahmud Koshg'ariy ham “har yili bir kun” deganda aynan yilboshini nazarda tutgan.

Navro'z bayrami Siyovush bilan aloqadorligining boisi shundaki, qadimgi ajdodlarimiz mifologiyasida Siyovush shodiyonalari ham ma'lum ma'noda, kuzda ramziy ma'noda “o'lgan” tabiatning ko'klamgi “tirilishi”ni nishonlash tantanasi hisoblangan.

“Devon”da shuningdek, “O'zga olam” bilan bog'liq leksemalar ham keltirilgan. Mahmud Koshg'ariy “**chiwi**” deb ataluvchi jinlar to'g'risida quyidagi afsonani bayon qiladi: “**chiwi** – bir toifa jinlar nomi. Bu shundayki, ikki guruh turklar bir-birlari bilan urishadi, urushdan oldin har qaysi guruh yurtida yashovchi jinlar o'z yurtlaridagi odamlarga ergashib, bir-birlari bilan jang qiladilar. Qaysi yurt jinlari yengsa, ertasi o'sha yurt shohi g'alaba qiladi. Qaysi yurt jinlari yengilsa, o'sha yurtdagi shoh ham yengilgan hisoblanadi. Jang qiluvchi guruhlar askarlari jinlar o'qlari tegishidan qo'rqib chodirlariga kirib yashirinadilar. Bu turklar orasida tarqalgan urf-odatdir” [DLT. 1963; 445].

Qadimgi turkiylar mifologiyasida odam yoki jonivorlarni domiga tortuvchi yovuz kuch sifatida tasvirlangan bu obrazlar nomini bildiruvchi mifonimning birinchi qismi «**chel// jel// el// del// il**» yoki “**yal// el// il// jal**” o'zak leksemasidan iborat bo'lib, bu so'zning ma'nosi “**ilon**” demakdir. Ma'lumki, ertak va dostonlarda ulkan ilon yoki ajdaholarning qahramonni yutishi tasirlangan lavhalar ko'p uchraydi. B.Ya.Proppning fikricha, yutuvchi ilon obrazi bilan bog'liq bu motivda qadimiy ramziy sinov marosimlari o'z ifodasini topgan.

Mahmud Koshg'ariy yetti boshli ulkan ilon haqida shunday yozadi:

**Bökä** – (bo'ka) – katta uzun ilon. Maqolda (shunday kelgan): Yeti boshli yil bökä, Ma'nosi: “Yeti boshli uzun ilon”. Yabaqlarning eng ulug'larin bu so'z bilan ataydilar. Yabaqlar yeti yuz ming atalgani kabi, ba'zan bahodirlarni ham shu so'z bilan ataydilar. Yabaqlar yeti yuz ming askar bilan qirq ming askarga ega bo'lgan Arslan tigin gāzī ga qarshi qilgan jangda Xudo ularni mag'lubiyatga uchratdi. Mahmūd (Koshg'ariy) aytadi: Men bu jangda ishtirok etganlaerdan: Kofirlar shuncha ko'p bo'lgani holda nega yengildi? – deb so'radim; urushda kofirlar shuncha ko'p bo'lgan holda nega qochishdi? – dedim. U aytadi: biz ham bunga hayron qoldik-da, kofirlardan so'radik, ular shuncha ko'pchilik bo'la turib qanday qilib yengildingiz? Dedik. Ular aytdilar: Jang nog'orasi chalinib, hamla boshlangach, boshlarimiz tepasida osmonni to'sib turgan yashil tog' ko'rdik. Uning

sanoqsiz eshiklari bor edi, har bir eshik ochiq edi. U yerdan bizga do'zax o'tlarini yog'dirishar edi. Biz undan xavfda qoldik, sizlar yengdingiz. Bu payg'ambarning musulmonlar himoyasi yo'lidagi mo'jizalaridandir, dedim. ("D.I.t." 402-bet, 2017-y).

Bu o'rinda "**jeti boshli bükä**" - "yetti boshli uzun ilon"<sup>4</sup>, bu birikmadagi "**jel**" so'zi "yalmog'iz" // "chelbegen" mifonimlarining shakllanishiga asos bo'lgan o'zak-leksema bilan ma'nodoshdir. O'zbek xalq ertaklarida yovuz mifik timsol sifatida qo'llaniladigan "yalmog'iz" obrazining nomini bildiruvchi atama ham yuqoridagi mifologemalarga aloqadorligi bor.

"O'zga olam" bilan bog'liq tushunchalar "chiwi", "jel jelpindi", "jak", "burg'an", "jeti boshli bükä" kabi so'zlarda izohlangan va bu tushunchalar hozirda ham ayrim turkiy xalqlarda davom etmoqda. O'zbek xalq ertaklaridagi yovuz kampirlar aynan yetti boshli ilon holida tasvirlanadi.

**Umay** (umay) – yo'ldosh (tuqqan xotinlar qornidan chiquvchi narsa). Uni bolaning qorindagi hamrohi – yo'ldoshi deyiladi. Maqolda (shunday kelgan): **Umayqa tapinsa, o'g'ul bolur**. Ma'nosi: "Kimki bunga xizmat qilsa, u o'g'il ko'radi", demakdir. Xotinlar yaxshilik kutadilar. ("D.I.t. 62-bet, 2017-y.")

Islom dini kirib kelgach, ma'budalarga sig'inish taqiqlandi, lekin xalq xotirasidagi "ayollar va bolalar homiysi" obrazi yo'qolmadi.

U Bibi Seshanba, Bibi Mushkulshod yoki shunchaki Umoy ona siymosiga ko'chdi. Bugungi kunda ham chaqaloq beshikka yotqizilayotganda yoki isitmasi chiqqanda, keksalarimiz: "Mening qo'lim emas, Umoy onaning qo'li" deb aytyshadi. Bu – ming yillik mifning jonli yashayotgan shaklidir.

"Devonu lug'ati-t turk"da keltirilgan Umoy ona, Baroq, Ko'ktubulg'on, Jel va Yil bükä kabi obrazlar shunchaki lisoniy birliklar emas, balki qadimgi turklarning koinot, tabiat va inson haqidagi yaxlit mifologik tizimining elementlaridir. Islom dini qabul qilingach, ushbu obrazlar yo'qolib ketmadi, balki reformatsiya va sinkretizm jarayonini boshidan kechirdi. Ma'budalar (Umoy) – madadkor ruhlarga, koinot maxluqlari (Yil bükä) – ertaklarda qahramonlar yengib o'tishi shart bo'lgan sinovlarga, afsonaviy hayvonlar (Baroq) – ertaklarda qahramonlarning g'ayritabiiy yordamchilariga aylandi. Mifik tasavvurlar bugungi o'zbek va boshqa turkiy xalqlar folklorining (ertak, doston, maqol va marosim qo'shiqlari) genetik asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu mifologik leksemalar, ularga berilgan izohlar, turkiy xalqlar madaniyati, tasavvur olami bir necha yuzyillar oldin ham boy va o'ziga xos dunyoqarashga ega bo'lganini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, asarda keltirilgan mifologik obrazlar va e'tiqodiy qarashlar vaqt o'tishi bilan doston va ertaklarga ko'chib, yangicha badiiy shakl kasb etgan. Bu esa asarning folklorshunoslik yo'nalishida, ayniqsa, qadimiy miflarning zamonaviy janrlarga transformatsiya jarayonini tahlil qilishda beqiyos manba ekanligini tasdiqlaydi. Bir so'z bilan aytganda, "Devonu lug'atit-turk" – turkiy xalqlar ma'naviy madaniyatining "oltin kaliti"dir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bichurin N.Ya. Sobraniye svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevniye vremena. T.1. – M.-L., 1957. – S. 50, 142-144.
2. Budagov L. Sravnitelniy slovar turecko-tatarskix narechiy. T.2. – SPb., 1883. – S. 351.





3. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 119.
4. Эшонкулов Ж. Маҳмуд Кошғарий ва фольклор.// "Девону луғоти-т-турк"-туркий халқларнинг ноёб ёзма ёдгорлиги" мавзусидаги халқаро илмий анжуман материаллари. Тошкент: Фан, 2018. – Б.71.
5. Hudud al-alam. Rukopis Tumanskogo s vvedeniyem i ukazatelyami V.V.Bartolda. – L., 1930. – S. 43, 170.
6. Jo‘raqo‘ziyev N. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda kosmogonik mifologiya. – Toshkent, 2018.
7. Jo‘rayev M. “Yada toshiga qon yetgach...” yoki yomg‘ir toshi haqida afsona // Yoshlik. – Toshkent, 1991. – 1-son. – B. 60-62.
8. Jo‘rayev M. Mifdan dostongacha // O‘zbekiston madaniyati. – Toshkent, 1980, 25-may.
9. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit-turk. 3 jildlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 47.
10. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk (Turkiy so‘zlar devoni). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2017. – B. 152.
11. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986. – B. 57-110.
12. Snesev G.P. Relikti domusulmanskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. – M.: Nauka, 1969. – S. 322.

